

**FARG'ONA VODIYSI ETNOSLARI VA ULAR MADANIYATIGA
OID AYRIM TAHLILLAR....
НЕКОТОРЫЕ АНАЛИЗЫ ЭТНОСОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ
И ИХ КУЛЬТУРЫ....
SOME ANALYSES ON THE ETHNOSES OF THE FERGANA
VALLEY AND THEIR CULTURE....**

Shaxnoza Muxammadjonovna Xayitova

“University of Business and Science”, Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

e-mail:hayitovashahnoza51@gmail.com

TEL: +998 93 402 36 74

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qadim Farg‘ona vodiysi va undagi qadimgi shaharlar, shaharda yashagan qadimgi etnoslar, ularning kelib chiqishi va etnik birlik sifatida rivojlanish tarixi, asosiy mashg‘ulotlari, madaniyati, liboslari ayniqsa Farg‘ona misolida o‘zbek milliy liboslarining turlari haqidagi fikrlarni hunarmandchilik rivoji va Farg‘onada o‘ziga xos dafn marosimlari haqidagi ma’lumotlarni keltirilgan.*

Абстрактный: *В статье представлены сведения о древней Ферганской долине и ее древних городах, о древних этнических группах, проживавших в городах, об их происхождении и истории развития как этнической единицы, об их основных занятиях, культуре, одежде, особенно в случае Ферганы, о видах узбекской национальной одежды, о развитии ремесел, об уникальных погребальных обрядах в Фергане.*

Abstract: *This article presents information about the ancient Fergana Valley and its ancient cities, the ancient ethnic groups that lived in the cities, their origin and history of development as an ethnic unit, their main occupations, culture, clothing, especially in the case of Fergana, ideas about the types of Uzbek national clothing, the development of crafts, and unique funeral ceremonies in Fergana..*

Kalit so'zlar: *Farg'ona vodiysi, hunarmandchilik, shaharsizlik, etnografik ma'lumot, milliy urf-odat, milliy liboslar, dafn marosimlar, diniy qarashlar*

Ключевые слова: *Ферганская долина, ремесла, сельская местность, этнографическая информация, национальные обычаи, национальные костюмы, погребальные обряды, религиозные воззрения.*

Key words: *Fergana Valley, handicrafts, rural areas, ethnographic information, national customs, national costumes, funeral ceremonies, religious views*

O'zbek xalqi ham boshqa etnoslar kabi ancha chigal va murakkab etnik jarayoblarni boshidan kechirgan. Bu jarayon eng qadimgi ibtidoiy davrlarda va butun o'rta asrlar davomida Yevroosiyo ayniqsa, O'rta Osiyo va Qozog'istonning bepoyon hududlarida migratsiya (ko'chish) va aralashish jarayonida muayyan qabilalar ittifoqi va yoki davlat davlat hududlari davrasida ro'y bergan. Tarixiy manbalarda yozilishicha, mintaqamizda bir necha ming yillar davomida quyidagi dastlabki tarixiy -madaniy va etnik birliklar vujudga kelgan: [1,5]

1. Yarim o'troq baliqchi elatlar

2. Daryo quyi oqimida va vodiylarda yarim o'troq chorvachilik va dehqonchilik bilan sgug'ullanuvchi aholi

3. Sug'orma omoch dehqonchiligi bilan shug'ullanuvchi aholi

4. Dasht va yarim dasht hududlarida yashovchi qisman dehqonchilik bilan sgug'ullanuvchi aholi Farg'ona vodiysi hududlaridan topilgan arxeologik topilmalar bu elatlar dastlabki davrlarda bir mintaqada paydo bo'lib, keyinchalik butun mintaqalar bo'ylab tarqalganligini bildiradi. Jumladan Xorazmdagi Kaltaminor madaniyati, Zarafshondagi Chinkeldi madaniyati, Markaziy Farg'onadagi Joytun madaniyalari bu elatlarning tarixiy jihatdan bir biriga bog'liq ekanini bildiradi.

Mill avv II ming yillik oxirlarida jez davrida fanda skif sarmat, sak massaget nomi bilan mashhur bo'lgan ko'chmanchiligi va yarim o'troq hind eron qabilalarining bir qismi O'rta Osiyo shimoli va Qozog'iston hududlariga joylashib o'ziga xos yuksak madaniyat yaratganlar. Sak-massagetlar qadimgi

Xorazm, Marg'iyona, Baqtriya davlatlarida yashovchi elatlar bilanyaqin aloqada bo'lganlar. [2,230] Sak massaget qabilalari boshqa xalqlar bilan birgalikda metaldan har xil mehnat qurollari, uy ro'zg'or buyumlari, xilma-xil badiiy bezaklar va aravalar yasaganlar.

Mill.avv. I ming yillik o'rtalaridan O'rta Osiyoda jumladan O'zbekiston hududlarida ham etnoantropologik jarayonlar yuz bera boshladi. Dalvarzintepa, Elatan, Ayritom, Eski Termiz harobalaridan topilgan arxeologik topilmalar mazkur fikrimizga dalil bo'la oladi. O'zbek xalqining o'tmishdagi kiyim kechaklari to'grisida ma'lumotlarni ham

arxeologik tadqiqotlar jarayonida topilgan katta devoriy suratlar, turli buyumlarga tushirilgan tasvirlar ifoda etadi. Qadim Farg'ona hududida istiqomat qilgan elatlarning kiyimlari shartli ravishda ikkiga an'anaviy va marosim liboslariga bo'lingan. [2,235] An'anaviy liboslar erkaklar uchun yaktak, belboq (ya'ni ayrim hududlarda qiyiqcha deb ham atalgan), chopon, do'ppi bo'lgan. Ayollar milliy liboslari esa paranji, ko'ylak, lozim albatta jiyagi bilan ro'mol kavush, maxsi kalish kabilar bo'lgan. Bundan tashqari ayollarda choponga o'xshash bichib tikilgan ust kiyimi ham bo'lhan. Uni Mirsak deb atalgan. Qadim Farg'ona hududlarida keng tarqalgan milliy matolar ham bo'lib ular banoras, beqasam, shoyi, nimshoyi, adras, parpasha kabilardan iborat. [4,66]

Banoras-beqasamdan rang turlari bilan farqlanib undan asosan ayollar ustki kiyimi hisoblangan paranji va mirsak tikilgan.

Parpasha – beqasamdan bir oz qalin va dag'alroq bo'lib undan chopon tikishda foydalanilgan.

Beqasam- eng keng tarqalgan milliy mato bo'lib nafaqat Farg'onafa, Buxoro va Samarqandda ham keng tarqalgan. Qadim Far'gona aholisi milliy liboslari shulardan iborat edi.

Farg'ona vodiysi etnografiyasida yana diqqatga sazovor muhim narsa dafn marosimlari va hunarmandchilikdir. Dafn marosimlarining o'ziga xosligi haqida tarixchilar B. Matboboyev, A. Asqarov va A. Anorboyevlar juda qiziqarli va muhim ma'lumotlar berganlar. Kundalik turmushda vodiya qamishdan keng foydalanilgan

va tabiiy xom-ashyolardan (qamish, qo'g'a va boshqalar) keng foydalanilgan. Ulardan qamish qadimgi davrlardan boshlab O'rta Osiyo xalqlari turmushida keng qo'llanilgan. U qurilish, uy-ro'zg'or ishlarining asosiy xom-ashyosi bo'lish bilan bir qatorda, undan o'tin, hatto hayvonlarga emish sifatida foydalanishgan [13,134-135]. Qamish qurilish ishlarida ham keng foydalanilgan. Jumladan, etnografiya materiallari ma'lumotlariga ko'ra, qamishdan tiklangan uy-joy - kokra SHimoliy O'zbekiston tomonlarda ancha ommaviy bo'lgan [16,474]. Farg'ona vodiysida esa, qamishdan turli buyumlar to'qilgan, bu bilan ma'lum bir urug'lar shug'ullangan [9,18,].Etnografik ma'lumotlariga ko'ra, ishlab chiqarishda ikki xil qamish turidan foydalanganlar. Ya'ni, «erkak qamish» yoki «nor qamish», uning o'zagi to'la bo'ladi va «urg'ochi qamish» o'zagi bo'sh bo'ladi. Birinchisi pishiq bo'lib, adirlarda va daryo vohalarida o'sadi, ikkinchisi to'qaylarda uchraydi va uy-joy qurishda ishlatiladi [10, 12]. Farg'ona vodiysida esa ular boshqacharoq ataladi: g'arov-hamma narsaga ishlatilgan va shovar- bordon to'qishda foydalanilgan. Bordon2 tommlar ustini yopishda ham ishlatilgan [12,145].

Demak, Munchoqtepadagilar qamishdan keng ko'lamda foydalanganlar: tobutlar tayyorlaganlar, paykon (kamon o'qlari), musiqa asboblari yasaganlar.Bundan tashqari topilmalar ichida tol, terak va boshqa daraxtlarning yosh novdalaridan foydalanib yasalgan buyumlar ham uchraydi...

Musiqa asboblari. Qamishdan yasalgan musiqa asboblari yuqorida tilga olingan yog'och g'ilofga solinib so'ng marhum yoniga qo'yilgan. Musiqa asboblari bilan bog'liq narsalarning soni 11 dona, hammasi yaxshi saqlangan.

Birinchi musiqa asbobi ikkita bir xil tayyorlangan qamish naychalaridan iborat. Ularning har birini bir uchi tabiiy yopiq, ikkinchi uchida esa mayda maxsus yumaloq teshikcha yasalgan. U puflash uchun «til» o'rnatishga mo'ljallangan. Har ikki naychani yuz tomonidan ma'lum nuqtalarda yumaloq teshilgan 6 ta teshikchalar yasalgan. Bu teshikchalar diametri «til» tomonidan oxiriga qarab kengayib boradi

Ikkinchi musiqa asbobi ham qamishdan yasalgan. Oldingidan farqi-bir oz uzun .Uning bir uchi bir oz yo'nilgan, ikkinchi tomonida yumaloq teshikcha bor, ya'ni «til» qo'yib puflashga mo'ljallangan. Asbobning old tomonida 6 ta yumaloq

teshikchalar bor . Bulardan tashqari g'ilof ichida bejirim qilib ishlangan va diametri yuqoridagi asboblarni tozalashga mo'ljallab yumaloq qilib yo'nilgan maxsus yog'och cho'pcha ham bor yana g'ilof ichiga har ikki asbob uchun etti dona qamishdan «tilcha»lar ham solingan. «Tilcha»lar ikki xil: birinchi xili kichikroq, yarmidan ko'prog'i yo'nilgan, ikkinchisi uzunroq, kamroq qismi yo'nilgan.

Xullas, qamish tobut ichidagi marhum yoniga ikkita musiqa asbobi qo'yilgan. Birinchisi, o'zbeklarning qo'shnayiga aynan o'xshab ketadi. Uning o'ynaladigan teshikchalari (6 ta), o'lchamlarida hozirgilardan bir oz farqlanadi [9,72-73]. Ikkinchisi qo'shnay kabi uzunroq, bir tomoni yo'nilgan, u balki metall asosga ulangandir. Ikkinchi musiqa asbobi hozirgi surnayga o'xshaydi. Arxeologik materiallar kompleksida musiqa asboblarning topilishi noyob hodisa. Ular asosan tasviriy san'at asarlarida (rang-tasvir, haykaltaroshlik, toshga so'qilgan rasmlar va boshqalar) uchraydilar. Ayniqsa, Farg'onada qadimgi davrlarda haykallar, devoriy suratlarning uchramasligini hisobga olsak, topilmalarni ilmiy ahamiyati yanada oshadi. Chunki, vodiyning qadimgi va ilk o'rta asrlardagi musiqa asboblari to'g'risida ma'lumotlar deyarli yo'q. Ayniqsa puflab chalinadigan asboblarning haqida juda kam ma'lumotlar qolgan. Jumladan, O'rta Osiyodagi eng qadimgi puflab chalinadigan musiqa asbobi (nay-svirel) Sug'diyonaning bronza davriga oid Mo'minobod qabristonida arxeolog Ahmadali Asqarov tomonidan topilgan [11,56-62]. Vodiydagi eng qadimgi musiqa asbobi Sho'rabashot yodgorligidan topilgan edi [7,47]. Yana Ustrushonaning - Chilxujra yodgorligidan ham qamishdan yasalgan musiqa asbobi topilgan [15,165]. Shunday qilib, Munchoqtepadagi musiqa asboblari Farg'ona vodiysi uchun birinchi topilma bo'lib, musiqa san'ati to'g'risida ma'lumot beradi.

To'qilgan savatlar - yer osti sag'analarida 20 ga yaqin to'qima savatlar topilgan, shulardan 12 tasi 5-sag'anada qayd etildi. Savatlar to'qilish texnikasiga ko'ra ikkiga bo'lingan:

1. Chiroyli qilib tekislangan va o'ziga xos «qobirg'a» vazifasini bajaruvchi yog'ochdan asos qilinib, unga qiyoq chiviqlaridan juftlab to'qilgan savatlar. Ularni to'qishda «spiral» texnik usulidan foydalanilgan. Savatlar shakliga ko'ra yumaloq

va oval ko'rinishga ega. Har bir savat shakliga qarab maxsus to'qilgan qopqoq bilan ham jihozlangan.

2. Bir oz qo'polroq ishlangan savatlar. Ularning asosi («qobirg'asi») yo'q, to'g'ridan to'g'ri tol, terak yosh novdalaridan to'qilgan. Ular yomon saqlangan, shuning uchun shaklini tiklab bo'lmaydi. Odatda ularning hajmi birinchi guruhdagi savatlarga nisbatan kattaroq bo'ladi. Novdalardan to'qilgan savatlar O'rta Osiyo xalqlari maishiy hayotida hozirgi kunda ham uchraydi, uni tayyorlovchi ustalar kam bo'lsada, faoliyat ko'rsatmoqdalar [12,42-246]. Ular odatda erta bahorda yoki kech kuzda ya'ni novdalar egiluvchan va ishlov berish osonlashgan mavsumda to'qilgan. Bundan tashqari, Munchoqtepa yodgorligidan turli qabrlardan kiyim bosh qoldiqlari ham topilgan.

Munchoqtepa sag'analaridan ajoyib saqlangan ipakli va ipli matodan tikilgan ust-bosh qoldiqlarini namunalarini topilishi, nafaqat to'qimachilik, balki O'rta Osiyo xalqlari kiyimlari tarixida ham yangi sahifalar ochdi. Ushbu kiyim-kechaklarni o'rnida o'rganish va laborotoriya sharoitida tadqiq etish qadimgi farg'onaliklar kiyimi ancha murakkab qilib tikilganini ko'rsatadi. Munchoqtepadagi qadimgi Farg'ona kiyimlarini tiklash bir necha bosqichdan iborat bo'ldi. Dastlab, ust-boshlar jasaddan chiqarib olinmasdan dala sharoitida batafsil o'rganildi. Asosiy e'tibor kiyim detallarini ko'rsatuvchi chizmalar va fotofiksatsiyalar qilishga qaratildi. So'ngra ularni ta'mirlash jarayonida choklariga va tikilish uslublariga e'tibor berildi. Oxirgi bosqichda to'plangan materiallar ma'lum devoriy suratlar, terrakota haykalchalari va ayrim yozma manbalar ma'lumotlariga solishtirildi va quyidagi kiyimlar namunalari tiklandi.

Ayollar kuylagi Ular uzun, etagi to'pig'igacha tushgan. Etagining eng quyi qismida ikki yon tomonidan 10-15 sm qirqib qo'yilgan. Bellarini esa, kamar-belbog' bilan bog'lab, zeb berganlar. Kamarlarning usti ipak, astari qattiqroq paxta matodan tikilgan. Ular yumshoq, to'qasiz kamarlar turiga kirgan bo'lishi kerak [11, 205]. Ustki xalat taxminimizcha, paxta matosidan tikilgan. Kiyim ipak matodan yasalgan gullar bilan bezatilgan. Ayollar kuylagi yuqorida aytganimizdek, etagi to'pig'igacha tushgan. Bu kiyim xususan B-3 qamish tobutidagi ayol jasadida yaqqol ko'rinadi.

Ayol jasadining uzunligi 170 sm. bo'lgani holda kuylagining uzunligi 125 sm. gacha boradi. Kuylagining yenglari ham uzun bo'lib, barmoqlari uchigacha yopib turgan. Ust-bosh mavsumga qarab bir necha qavat kiyilganga o'xshaydi. Buni arxeologlar D-10 qamish tobutni o'rganish davomida oydinlashdi: bu marhum ustida uch qator kiyim bor edi. Eng ustki qavatda xalatni eslatuvchi kiyim, ostida esa yana ikki qavat ipakdan tikilgan kiyim bo'lgan.

Bolalar kiyimi . Ular kalta, belidan sal pastga tushib turgan. Ko'ylak etagidan, ya'ni beli atrofida ikki yon tomonidan 10-15 sm qirqib qo'yganlar. Yoqalari to'g'ri va belida maxsus tasma-belbog'i bor. Ko'krak qismini berkitish uchun ipdan alohida bog'ichcha ximarilgan, englari uzun. Tashqi choklar ensiz lenta bilan tikib mahkamlangan. Elkasi, old tomoni va englari atrofida ko'plab mayda munchoqchalar bor, demak kiyimning ushbu qismlariga munchoqlar tikib hasham berilgan. Ko'ylakni bizningcha, sharovar tipidagi kiyim bilan kiyganlar.

Xulosa qilib aytganda, qadim Farg'ona vodiysi o'z tarixga xos arxeologik, antropologik, etnografik manbalariga ko'ra hunarmandchilik, me'morchilik, savdo, kulolchilik kabi sohalar rivojlangan qadimiy hudud ekani bilan davlatchiligimiz tarixida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES).

1. Абдухолик Абдурасул ўғли. Қадимги Фарғона тарихидан. – Ташкент: Фан, 2002. –109 б
2. Абрамзон С.М. Киргизы и их этногенетические и историко-культурные связи. –Фрунзе.: Кыргызстан, 1990. -480 с.
3. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2001.–368 с
4. Anorboyev A. Farg'onanning qadimgi shaharlari va ularning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o'rnini – Toshkent: 2002, 148 b
5. А.Анорбоев Фаргонанинг антик ва урта асрлар даври маданияти Докт.дисс. -Тошкент:2017,154- бет
6. Анарбаев А. Ахсикет – столица древней Ферганы. Ташкент, 2013. 515- бет
7. Асқаров А.А. Ўрта Осиё қадимги дунёсининг асосий хусусиятлари // ЎИФ. № 6. -Тошкент, 1994. -31-35-бетлар.

8. Горбунова Н.Г., 1996. Женские украшения Кугайско-карабулакской культуры Ферганы // Древний и средневековый Кыргызстан. – Бишкек.: Илим, 1996. – 92 ст.
9. Губаева С.С. Население Ферганской долины в конце XIX - начале XX в. (этнокультурные процессы). – Ташкент: Фан, 1991. - 132 с.
10. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. Москва-Ленинград, 1962. 328 бет
11. Горбунова Н.Г. О типах ферганских погребальных памятников первой половины I тысячелетия н.э. // АСГЭ. Вып. 22. - Л.: Искусство, 1981. - С. 84-99.
12. Матбобоев.Б.Кадимги Фаргонанинг илк урта асрлар даври маданияти. Самарканд, 2009. 407 б
13. Набиев Р.Н. Из истории Кокандского ханства (Феодальное хозяйство Худояр-хана). Ташкент: Фан, 1973. 388 с.
14. Петросянц А. Узбекские народные инструменты. Ташкент, 1990. 136 с.
15. Пулатов У. Деревянные изделия из Чил-Худжры // МКТ. Вып. 1. - Душанбе: Дониш, 1968. - С. 162-172.
16. Народы Средней Азии и Казахстана. Том I. -М., 1962. -768 с.